



RAQAMLI ASRDA YANGI QULLIK: ERKINLIK VA TEXNOLOGIYANING ZIDDIYATI

Ilmiy rahbar: Toshkent Tibbiyat Akademiyasi

Ijtimoiy fanlar kafedrasasi o‘qituvchisi

Shakarov Bobur Xusniddinovich

Muallif: Toshkent Tibbiyat Akademiyasi talabasi

Norqulova Zuhra Furqat qizi

norqulovazuhra28@gamil.com

Annotatsiya; Mazkur maqolada texnologiyaning qulayliklari ortida yashiringan nazorat mexanizmlari, inson xatti-harakatlarining algoritmlar orqali boshqarilishi va axborot manipulatsiyasi tahlil etilgan. Hozirgi davr falsafasi va qadimgi falsafiy tushunchalarni qiyoslab, raqamli qullikning mohiyati yoritilgan. Ushbu maqolada zamонавија insoniyatning raqamli dunyodagi ixtiyoriy qullikka qanday ko‘nikayotgani yoritadi va muqobil falsafiy yondashuvlarni taklif etadi.

Kalit so’zlar: Raqamli qullik, texnologik nazorat, sun’iy intellect, algoritmik manipulyatsiya, Platon g‘or alegoriyasi, Stoik falsafasi, raqamli kapitalizm, ma’lumotlar ekspluatatsiyasi, virtual haqiqat.

Texnologiya taraqqiyoti insoniyat hayotining barcha jabhalarini o‘zgartirdi. Axborot almashinuvi tezlashdi, inson imkoniyatlari kengaydi, kundalik ishlar avtomatlashtirildi. Biroq, texnologik rivojlanish erkinlikni oshirdimi yoki insonni yangi shakldagi qaramlikka mahkum etdimi? Hozirgi zamonda biz ko‘pincha texnologik qulayliklar evaziga shaxsiy hayot maxfiyligi, mustaqil tafakkur va tanlov erkinligini boy berayotganimizni anglamaymiz. Raqamli qullik — bu shunday hodisa bo‘lib, unda insonlar texnologik inqilob mahsulotlaridan foydalanayotgan bo‘lsalar ham, aslida, sun’iy intellekt, algoritmlar va ma’lumotlar nazorati orqali boshqarilayotganini sezishmaydi.

Bugungi jamiyatda texnologiya nafaqat qulaylik yaratmoqda, balki inson tafakkurini shakllantiruvchi asosiy kuchga ham aylanmoqdir. Bu holat Platonning



“g‘or alegoriyasi” bilan bog‘liq. Platon o‘z asarida insonlarni g‘or ichida soyalarni kuzatayotgan mahbuslarga o‘xshatgan edi. Ularning haqiqat haqidagi tasavvurlari faqat o‘zlari ko‘rgan soyalar bilan cheklangan. Xuddi shunday, zamonaviy jamiyat ham axborot texnologiyalari orqali boshqarilayotgan sun’iy haqiqat ichida yashamoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, internet algoritmlari va raqamli platformalar bizga qanday fikrlashimiz kerakligini ko‘rsatmoqda, bu esa inson erkinligini cheklaydi.[1]

Ushbu maqola raqamli qullikning mohiyati, texnologik nazoratning cheklari, erkinlik tushunchasining zamonaviy talqini va inson tafakkurining texnologiya ta’sirida qanday o‘zgarayotganini falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Shuningdek, qadimgi falsafaning asosiy g‘oyalari va bugungi texnologik rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berishga harakat qiladi.

Raqamli texnologiyalar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Har birimiz ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazamiz, smartfon va kompyuterlar orqali ma’lumot izlaymiz, algoritmlar taqdim etgan tavsiyalarga ko‘ra kontentni iste’mol qilamiz. Biroq, ushbu texnologiyalar bizning foydamiz uchun ishlayaptimi yoki aksincha, bizni nazorat qilish vositasiga aylanib qolganmi? Raqamli qullik tushunchasi shuni anglatadiki, inson o‘z ixtiyori bilan texnologiyalardan foydalanayotgan bo‘lsa ham, aslida sun’iy intellekt va algoritmlar uning xatti-harakatlarini oldindan belgilab qo‘yadi, axborot oqimini cheklaydi va istaklarini shakllantiradi. Bugungi kunda texnologik korporatsiyalar (Google, Meta, Amazon) foydalanuvchilarining harakatlari va ma’lumotlarini doimiy ravishda kuzatib, ularni tijorat maqsadida qayta ishlaydi. Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida odamlarning kelajakdagi xatti-harakatlarini bashorat qilish va ularga ta’sir o‘tkazish mumkin. Natijada inson erkinligi sezilarsiz tarzda cheklangan holda qoladi. Raqamli qullikning eng xavfli jihat shundaki, odamlar o‘zlarining manipulyatsiya qilinayotganini ham anglamay qolishadi. Algoritmik manipulyatsiya orqali ularga ma’lum axborotlar ko‘rsatiladi, muayyan dunyoqarash shakllantiriladi va alternativ fikrlar chegaralanadi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi axborot pufakchalari (filter bubbles) odamlarni faqat o‘zlari rozi bo‘lgan fikr doirasida saqlab qoladi, bu esa mustaqil tafakkur imkoniyatlarini qisqartiradi.[2]



Platon o‘zining "g‘or alegoriyasi" orqali insonlarni haqiqatdan uzoq bo‘lgan, cheklangan axborot muhitida yashovchi mavjudot sifatida tasvirlagan. Zamonaviy texnologiyalar ham bizga haqiqatni to‘liq ochib bermaydi, balki algoritmlar tomonidan shakllantirilgan versiyasini taqdim etadi. Platon nazariyasida haqiqiy erkinlik insonning o‘z ongini rivojlantirib, haqiqatni anglashga intilishi bilan bog‘liq edi.

Stoik faylasuflari, jumladan Seneka va Epiktet, erkinlikni tashqi omillarga emas, balki insonning ichki tafakkuriga bog‘liq deb hisoblashgan. Ammo zamonaviy texnologik dunyoda inson ongi ham manipulyatsiya qilinayotgani sababli, ichki mustaqillikni saqlab qolish tobora qiyinlashmoqda. Odamlar o‘zlariga taqdim etilgan axborotdan tashqariga chiqsa olmaydigan darajaga yetishmoqda, bu esa erkin tafakkurning susayishiga olib kelmoqda.[3]

Hozirgi raqamli davrda erkinlik tushunchasi yangicha shakl kasb etmoqda. Sun’iy intellekt va algoritmlar hayotimizning barcha jabhalariga kirib kelgan bo‘lsada, ularning ta’sirini nazorat qilish mexanizmlari yetarli emas. Kuzatuv jamiyatni bugungi real tahdidlardan biridir. Ko‘pgina davlatlarda yuzni aniqlash tizimlari (Face ID), ommaviy kuzatuv kameralar va onlayn monitoring usullari insonlarning harakatlarini nazorat qilishda keng qo‘llanilmoqda. Xitoyning ijtimoiy reyting tizimi bunga yaqqol misoldir; fuqarolar xatti-harakatlariga qarab ball yig‘ishadi va ularning jamiyatdagi imkoniyatlari shunga bog‘liq bo‘ladi. Bunday tizimlar erkinlik tushunchasiga zid bo‘lsa ham, tobora ko‘proq davlatlar tomonidan sinovdan o‘tkazilmoqda ekanligi e’tirof etadi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar va axborot manipulyatsiyasi bugungi global muammolardan biri hisoblanadi. Facebook, TikTok, Instagram kabi platformalar algoritmlari insonlarning kayfiyatini, xatti-harakatlarini va hatto siyosiy qarashlarini shakllantirishi mumkin. 2016-yilgi AQSh saylovlarida Cambridge Analytica ma’lumotlaridan foydalanib, millionlab odamlarning fikriga ta’sir o‘tkazilgani bunga misol bo‘la oladi.[4,5]

Bugungi kunda insonlar ongli ravishda o‘z shaxsiy ma’lumotlarini turli xizmatlarga topshirayotgan bo‘lsa-da, bu ma’lumotlar qanday ishlatalishi haqida yetarlicha tushunchaga ega emaslar. Sun’iy intellekt bilan boshqariladigan algoritmlar



insonlarning ongini shakllantirish, iste'mol odatlarini nazorat qilish va ularga ta'sirni kuchaytirmoqda.

Texnologiyaning mutlaq salbiyligini ta'kidlab bo'lmaydi, chunki u inson hayotini ancha yengillashtirdi. Ba'zi harakatlar allaqachon raqamli qullikka qarshi kurashmoqda. Digital resistance (raqamli qarshilik) harakati shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, axborot manipulyatsiyasiga qarshi turish va texnologiyadan ongli ravishda foydalanishni targ'ib qiladi. Shifrlangan aloqa vositalari (Signal, Proton Mail) yoki ochiq kodli dasturlar (Linux, Tor) kabi texnologiyalar shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga yordam beradi.

Biroq, bu muammo faqat texnologik yechimlar bilan hal bo'lib qolmaydi. Inson o'z ongini mustaqil saqlash uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi, axborot iste'mol qilish madaniyatini o'zgartirishi va texnologiya ustidan nazoratni saqlab qolishi kerak. Faqat shundagina texnologik rivojlanish erkinlikka xizmat qiladi, aks holda u yangi shakldagi qullikka aylanib boraveradi.[6,7]

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki raqamli asr insoniyatga misli ko'rilmagan imkoniyatlar yaratdi: axborotga tezkor kirish, sun'iy intellekt yordamida hayotni yengillashtirish, global miqyosda muloqot qilishni ta'minlamoqda. Zamonaviy texnologiyalar inson erkinligini kengaytirish o'rniga, aksincha, uni cheklash, boshqarish va manipulyatsiya qilish vositasiga aylanmoqda. Raqamli qullik atamasi bugungi kunda real holatga aylandi.[8,9]

Kelajakda texnologiyaning qanday rivojlanishi insoniyatning ushbu muammoga qanday munosabatda bo'lishiga bog'liqdir. Agar insonlar texnologiya ustidan nazoratni saqlay olmasa, u yangi shakldagi qullikka aylanadi. Ammo ongli yondashuv bilan texnologiyadan erkinlikni kengaytirish yo'lida foydalanish ham mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Platon. Respublika. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
2. Chomsky, Noam. Manufacturing Consent: The Political Economy of the Mass Media. – New York: Pantheon, 1988.
3. Epiktet. Ozodlik yo'li. – Moskva: Eksmo, 2012.



4. Harari, Yuval Noah. 21st Century uchun 21 dars. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2020.
5. Zuboff, Shoshana. The Age of Surveillance Capitalism. – New York: PublicAffairs, 2019.
6. Lanier, Jaron. You Are Not a Gadget. – New York: Vintage, 2010.
7. Carr, Nicholas. The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. – New York: W. W. Norton & Company, 2010.
8. Turkle, Sherry. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. – New York: Basic Books, 2011.
9. Schneier, Bruce. Data and Goliath: The Hidden Battles to Collect Your Data and Control Your World. – New York: W. W. Norton & Company, 2015.